



AKADEMIK YAHYO G'ULOMOVNING ARXELOGIYA SOHASIGA QO'SHGAN HISSASI

Avalbayeva Nargiza Rustam qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston arxeologiya fanining asoschilaridan biri bo'lgan akademik Yahyo G'ulomovning ilmiy faoliyati, arxeologik tadqiqotlari hamda milliy arxeologiya maktabining shakllanishidagi o'rnini tahlil qilinadi. Olimning Toshkent vohasi, Zarafshon vodiysi, Farg'ona vodiysi va Xorazm hududlarida olib borgan arxeologik izlanishlari, qadimgi sug'orish tizimlari, dehqonchilik madaniyati va shaharsozlik tarixini o'rganishdagi xizmatlari yoritiladi. Shuningdek, uning ilmiy metodologiyasi, arxeologik merosni asrash borasidagi faoliyati hamda zamonaviy arxeologiya rivojiga ta'siri ilmiy jihatdan baholanadi.

Kalit so'zlar: Yahyo G'ulomov, arxeologiya, Xorazm, qadimgi sug'orish tizimi, arxeologik ekspeditsiya, moddiy madaniyat, tarixiy meros, shaharsozlik, Toshkent vohasi, O'zbekiston arxeologiyasi.

Har bir xalqning tarixini chuqur anglashda arxeologiya fanining o'rnini beqiyosdir. Arxeologik tadqiqotlar yozma manbalarda uchramaydigan yoki yetarlicha yoritilmagan tarixiy jarayonlarni ilmiy dalillar asosida tiklash imkonini beradi. O'zbekiston hududi qadimdan yuksak madaniyat va sivilizatsiyalar rivojlangan markazlardan biri bo'lib, bu yerda olib borilgan arxeologik izlanishlar xalqimiz tarixini o'rganishda muhim manba hisoblanadi.

O'zbekiston arxeologiyasining rivojlanishida akademik Yahyo G'ulomov alohida o'rin tutadi. U nafaqat iste'dodli tarixchi va arxeolog, balki yangi ilmiy maktab asoschisi, ko'plab shogirdlarni tarbiyalagan ustoz ham edi. Uning ilmiy faoliyati davomida amalga oshirilgan tadqiqotlar O'zbekistonning



qadimgi tarixini ilmiy asosda qayta tiklash, arxeologik yodgorliklarni tizimli ravishda o'rganish va ularni muhofaza qilishga xizmat qildi.

Yahyo G'ulomov XX asrning 30-yillaridan boshlab O'zbekiston hududida muntazam arxeologik tadqiqotlar olib bordi. O'sha davrda respublikada arxeologik izlanishlar hali shakllanish bosqichida bo'lib, ilmiy tadqiqotlarning aksariyati xorijlik yoki markaziy ilmiy muassasalardan kelgan olimlar tomonidan amalga oshirilardi. G'ulomov esa mahalliy mutaxassis sifatida milliy arxeologiya fanining rivojlanishiga katta hissa qo'shdi.

Y. G. G'ulomov birinchi o'zbek arxeolog-mutaxassisidir. Uning arxeologik dala ishlaridagi ishtiroki 1930-yillarning boshlariga to'g'ri keladi. Mashhur arxeolog M. E. Masson 1933-yilda Ayritama traktida (Termiz yaqinida) olib borilgan arxeologik qidiruv ishlarini tasvirlar ekan, „Yosh yangi tadqiqotchi Samarqand pedagogika instituti bitiruvchisi Yahyo G'ulomov ekspeditsiyasida ishtirok etganini eslatib o'tadi. Ya.G'.G'ulomovning mustaqil arxeologik tadqiqotlari 1936-yilga to'g'ri keladi.¹

1933-1940-yillar u O'zbekiston qadimiy yodgorliklari va san'at asarlarini qo'riqlash qo'mitasi ilmiy xodimi va ilmiy kotibi sifatida faoliyat yuritdi. Shu vaqtdan e'tiboran, u arxeologik tadqiqotlarda qatnashadi, ilmiy ekspeditsiyalar va tekshirishlarda ishtirok etadi.²

Yahyo G'ulomov boshchiligidagi O'zbekiston arxeologiya ekspeditsiyasining ko'p sonli otryadlari Zarafshonning quyi oqimida, Samarqand mintaqasida, Farg'ona vodiysida va Toshkent vohasida, shuningdek, yangi o'zlashtirilayotgan yerlarda, irrigatsiya qurilishlari zonalarida, Chimqo'rg'on, Janubiy Surxon va Tuyabo'g'iz suv omborlari, Chorvoq GES qurilishi hududlarida, Amu-Buxoro va Amu-Qarshi kanallari,

¹ https://uz.wikipedia.org/wiki/Yahyo_G'ulomov internet manzili

² <https://arboblar.uz/uz/people/gulyamov-yakhya-gulyamovich> internet manzili

keyinchalik esa Markaziy Fargʻona kanali trassasida dala tadqiqotlarini olib bordilar.³

Olim Zarafshon va Fargʻona vodiylari, shuningdek, Toshkent vohasida olib borgan arxeologik tadqiqotlari orqali Oʻzbekiston hududidagi eng qadimgi madaniy bosqichlarni ilmiy jihatdan tavsiflashga katta hissa qoʻshdi. Ayniqsa, tosh, eneolit va jez davrlariga oid manzilgohlar hamda moddiy madaniyat namunalari yuzasidan olib borgan izlanishlari ushbu davrlarning xronologiyasi, xoʻjalik hayoti va madaniy taraqqiyotini aniqlashda muhim ilmiy ahamiyat kasb etdi.

Yahyo Gʻulomov arxeologiyada mutlaqo yangi ilmiy yoʻnalishlardan birini – qadimgi irrigatsiya tizimlarini tarixiy-arxeologik jihatdan oʻrganishni rivojlantirdi. U qadimgi kanal va ariqlarni, suv omborlari hamda sugʻorish inshootlarini batafsil tadqiq qilib, ularning dehqonchilik va shaharlar rivojiga koʻrsatgan taʼsirini ilmiy asosda isbotladi.

Yahyo Gʻulomovning Oʻzbekiston sugʻorilish tarixiga oid ilmiy ishlari ushbu yoʻnalishdagi tadqiqotlarning asosini tashkil etib, xalq xoʻjaligi sohasida ham muhim ahamiyat kasb etdi.

Olimning fikricha, Markaziy Osiyoda ilk davlatlarning shakllanishida sugʻorish tizimlarining rivojlanishi hal qiluvchi omillardan biri boʻlgan. Shu bois u arxeologik qazishmalarni tabiiy-geografik kuzatuvlar bilan uygʻunlashtirib olib bordi. Bunday yondashuv keyinchalik Markaziy Osiyo arxeologiyasida keng qoʻllanila boshladi.

Ayniqsa, uning "Xorazmning sugʻorish tarixi" nomli fundamental asari nafaqat tarixchilar, balki arxeologlar, geograflar va gidrotexnika mutaxassislari uchun ham muhim ilmiy manbaga aylandi.

Yahyo Gʻulomov Toshkentning qadimiy tarixini tadqiq etishni oʻz ilmiy faoliyatining ustuvor yoʻnalishlaridan biri sifatida koʻrdi. U Toshkent kanali hududi va Toʻytepa atrofida keng koʻlamli arxeologik qazishmalarni tashkil

³ Gʻulomov, Y. Gʻ. Xorazmning sugʻorilish tarixi. – Toshkent, 1959.



etib, qadimgi manzilgohlar va tarixiy obidalarning ilmiy tavsifini yaratishga muvaffaq bo'ldi. Mazkur tadqiqotlar poytaxtning qadimgi tarixini tiklash hamda uning tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlashda muhim manba bo'lib xizmat qildi.

1966-yilda sodir bo'lgan Toshkent zilzilasidan keyin shaharni qayta qurish ishlari jadallashgan davrda ko'plab arxeologik yodgorliklarning yo'qolib ketish xavfi yuzaga keldi. Ushbu vaziyatni chuqur anglagan Yahyo G'ulomov maxsus Toshkent arxeologiya ekspeditsiyasini tashkil etish tashabbusi bilan chiqdi. Ekspeditsiya faoliyati davomida qurilish maydonlaridagi tarixiy qatlamlar muntazam kuzatilib, ko'plab arxeologik topilmalar qayd etildi, ilmiy hujjatlashtirildi va keyingi tadqiqotlar uchun saqlab qolindi. Bu ishlar nafaqat Toshkent tarixini o'rganish, balki O'zbekistonning madaniy merosini asrash va ilmiy muomalaga kiritishda ham muhim bosqich bo'ldi.

Respublikada arxeologiya sohasidagi deyarli barcha tashabbuslar, ekspeditsiyalar hamda razvedkalarining tashkil etilishi Yahyo G'ulomov nomi bilan bog'liq. Arxeologiya sohasining rivojlanishiga u o'zining beqiyos hissasini qo'shdi. Uning qadimiy irrigatsiya va yerdan foydalanish tarixini o'rganish sohasidagi tadqiqotlari natijalari, shuningdek, Zarafshon va Qashqadaryo kabi qadimgi suv manbalarining gidrologik rejimini tadqiq etishga oid xulosalari o'z qimmatini jihatidan tengi yo'q, poydevor bo'luvchi ilmiy natijalar sifatida baholandi.⁴

1938–1950-yillarda Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasida rahbar o'rinbosari sifatida olib borgan ishlari natijasida qadimgi qal'alar, dehqonchilik manzilgohlari, sug'orish tarmoqlari va tarixiy obidalar ilmiy muomalaga kiritildi. Ushbu tadqiqotlar Xorazm vohasining qadimgi

⁴ Nazirov Baxtiyor Safarovich, Bozarov Nuralibek Saidmurod o'g'li. Yahyo G'ulomovich G'ulomov – O'zbekiston rxeologiyasi asoschisi. Maqola, 11-b.



sivilizatsiyalar markazlaridan biri ekanligini ilmiy dalillar bilan asoslashga xizmat qildi.⁵

Yahyo G‘ulomov ilmiy tadqiqotlar bilan bir qatorda tarixiy yodgorliklarni saqlash va muhofaza qilish masalalariga ham katta e’tibor qaratgan. U O‘zbekistonning qadimiy obidalarini ro‘yxatga olish, ularni ilmiy tavsiflash hamda davlat muhofazasiga olish bo‘yicha qator tashabbuslarni ilgari surdi.

Yahyo G‘ulomovning eng katta xizmatlaridan biri uning ilmiy maktab yaratganidir. U ko‘plab yosh olimlarga ilmiy rahbarlik qildi, ularni arxeologik tadqiqot metodlari bilan tanishtirdi va mustaqil izlanishlar olib borishga undadi. Uning shogirdlari keyinchalik O‘zbekiston arxeologiya fanining yetakchi vakillariga aylandilar.

Taniqli olim arxeologiya va tarixshunoslikning dolzarb masalalariga oid ko‘plab monografiyalar, risolalar hamda ilmiy maqolalar muallifidir. Monografiyalar va uslubiy qo‘llanmalar bilan birgalikda hisoblaganda, olim qalamiga mansub 100 dan ortiq ilmiy ish mavjud.

Yahyo G‘ulomovning mamlakatimiz ilm-fanini rivojlantirishga, xususan, o‘zbek arxeologiyasining taraqqiyotiga qo‘shgan ulkan xizmatlari davlatimiz tomonidan munosib taqdirlangan. 1988-yilda O‘rta Osiyo mintaqasidagi yagona Arxeologiya institutiga uning tashkil etilishida katta hissa qo‘shgan olim Yahyo G‘ulomov nomi berildi.⁶

Xulosa qilib aytganda, akademik Yahyo G‘ulomov O‘zbekiston arxeologiya fanining shakllanishi va rivojlanishida beqiyos xizmat ko‘rsatgan buyuk olimlardan biridir. Uning ilmiy faoliyati nafaqat arxeologik yodgorliklarni aniqlash va o‘rganish, balki ularni tarixiy, madaniy hamda ijtimoiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda ilmiy tahlil etish orqali o‘zbek tarixshunosligida yangi bosqichni boshlab berdi. Olim tomonidan amalga

⁵ <https://unipublish.uz> internet manzili

⁶ <https://www.researchgate.net> internet manzili

oshirilgan keng ko‘lamli arxeologik ekspeditsiyalar natijasida O‘zbekistonning ko‘plab hududlarida qadimiy manzilgohlar, sug‘orish inshootlari, shahar xarobalari va moddiy madaniyat yodgorliklari aniqlanib, ilmiy muomalaga kiritildi.

Yahyo G‘ulomovning ayniqsa qadimgi sug‘orish tizimlari, dehqonchilik madaniyati va Xorazm vohasi tarixiga oid tadqiqotlari bugungi kunda ham o‘z ilmiy ahamiyatini saqlab qolmoqda. U ishlab chiqqan ilmiy qarashlar va metodologik yondashuvlar keyingi avlod arxeologlari uchun muhim ilmiy maktab vazifasini o‘tadi. Olimning tadqiqotlari O‘zbekiston hududida qadimdan rivojlangan irrigatsiya tizimlari, shaharsozlik madaniyati va xo‘jalik hayotining tarixini ilmiy asosda tiklash imkonini berdi.

Bugungi kunda ham Yahyo G‘ulomovning ilmiy merosi arxeologiya, tarix, etnologiya va madaniy merosni muhofaza qilish sohalarida olib borilayotgan tadqiqotlar uchun muhim manba hisoblanadi. Uning ilmiy asarlari va metodologik yondashuvlari zamonaviy ilmiy izlanishlarda o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Shu bois, olimning boy ilmiy merosini chuqur o‘rganish, uni yangi arxeologik ma’lumotlar asosida yanada boyitish va keng targ‘ib etish O‘zbekiston tarixini xolis va ilmiy asosda yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi. Yahyo G‘ulomov qoldirgan ilmiy maktab va meros kelajak avlod tadqiqotchilari uchun ham mustahkam nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. G‘ulomov Y. G‘. Xorazmning sug‘orilish tarixi. Toshkent, 1959.
2. Nazirov Baxtiyor Safarovich, Bozarov Nuralibek Saidmurod o‘g‘li. Yahyo G‘ulomovich G‘ulomov – O‘zbekiston arxeologiyasi asoschisi. Konferensiya maqolalar to‘plami. Toshkent. 2021. 11-b.
3. <https://arboblar.uz/uz/people/gulyamov-yakhya-gulyamovich> internet manzili
4. https://uz.wikipedia.org/wiki/Yahyo_G‘ulomov internet manzili
5. <https://www.researchgate.net> internet manzili
6. <https://unipublish.uz> internet manzili

